

Qamoqdagi mav'iza



15:00 / 20.04.2019 3956

9

Yusuf qamoqqa kirganda, qamoq ahli Yusufning oliyjanob yigit ekanini bildi. Haqiqatda Yusufda ulkan ilm bor edi.

Haqiqatda Yusufning ko'ksida rahmdil yurak bor edi. Qamoq ahli Yusufni yaxshi ko'rib qolib, uni hurmat qildilar.

Odamlar Yusufdan xursand bo'lib, uni hurmatladilar. U bilan birga qamoqqa ikki kishi kirgan edi. Ikkovi tushini hikoya qilib berdi.

“Ulardan biri: “Men tushimda sharob tayyorlab yuribman”, dedi.

Boshqasi esa: “Men boshimda non ko'tarib yuribman, qush undan yemoqda”, dedi.

U ikkovi Yusufdan bu tushlarning ta'birini so'radi. Yusuf tush ta'birlarini bilar edi. Yusuf payg'ambarlardan biri edi. Uning davrida insonlar Allohdan boshqaga ibodat qilardilar. Ular o'z ichlaridan ko'plab xudolarni to'qib olgandilar.

"Bu quruqlik xudosi, bu dengiz xudosi, bu rizq xudosi, bu yomg'ir xudosi", der edilar.

Yusuf bularning barchasini ko'rib, kular edi.

Yusuf bularning barchasini o'ylab, yig'lar edi.

Yusuf ularni Allohga da'vat qilishni xohlardi. Alloh bu narsa qamoq ichida bo'lishini xohladi.

Qamoq ahli va'z qilinishga haqli emasi?

Qamoq ahli rahm qilinishga haqli emasmi?

Qamoq ahli Allohning bandalari emasmi?

Qamoq ahli ham odam bolalari emasmi?

Yusuf qamoqda bo'lsa ham, lekin hur va jur'atli edi.

Yusuf kambag'al bo'lsa ham, lekin qo'li ochiq va saxiy edi.

Albatta, payg'ambarlar hamma joyda haqni baralla aytadilar.

Albatta, payg'ambarlar hamma vaqt yaxshilik va ezgulikda bo'ladilar.